

VALERIANA (*OFFICINALIS*) O'SIMLIGINING FOYDALI TARKIBI HAMDA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Asadova Aziza Kamoliddin qizi¹

Nabiyeva Zulxumor Zafar qizi²

Mamatqulova Iroda Ergashevna³

^{1,2,3}Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy Universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu qo'lyozmada Valeriana (*officinalis*) o'simligining dorivorlik xususiyati hamda uni yetishtirish agrateknologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Valeriana (*officinalis*) dorivor o'simligi o'tmishdan bizga ma'lum bo'lib bir qancha nomlar bilan atalgan. Averyanom, aramatika va hatto qonli qirg'oq nomlari bilan atalgan. Ushbu o'simlik valerianadoshlar (*Valerianaceae*) oilasiga mansub, ko'p yillik o'simlik, ildizpoyasi qisqa va ko'pgina mayda ildizchalar bilan qoplangan bo'lib, yer ostida tik joylashgan.

Kalit so'zlar: Averyanom, efir moylar, izovalerian kislota, barnioizovalerianat, terpinol, alkaloidlar, sanonin.

Ushbu o'simlik Valeriana turkumiga mansub polimorf o'simlik hisoblanadi. Dunyoda yovvoyi holda ularning 250 ga yaqin turlari mavjud. Shimoliy va Janubiy Amerika, Yevropa va Osiyoning tog'li hududlarida tarqalgan. Tabobatda asosan Valeriana *Officinalis* L ishlatiladi, mazkur tur maxsus xo'jalikda ekib o'stiriladi. Dorivor Valeriana *Officinalis* boyi 2 metr keladigan, tik o'suvchi, slindirsimon, mayda qirrali, shoxlanmagan, ichi kovak poya hosil qiluvchi o'simlik. Ildizpoyasi qisqa, tarkibida 0.5-2 % efir moyi vas of holda izovalerian kislota bo'ladi. Uning efir moyi asosan ingichka ildizda, izovalerian esa yog'on va qari ildizda ko'proq bo'ladi. Bargi oddiy patsimon, 4-11 juft bo'lakchalardan iborat. Gullari oddiy ro'vakka to'plangan gulto'ji voronkasimon, besh bo'lakliq yoki pushti rangda bo'ladi. Mevasi – pista meva. May va avgust oylarida gullaydi.

Kimyoviy tarkibi. Ildizpoyasi tarkibida efir moyi hamda izovalerian kislota mavjud. Izovalerian kislotaning barniol spirit bilan hosil qilgan murakkab efiri – barnioizovalerianat, shuningdek barniolning sirka, chumoli kislotalari bilan hosil qilgan murakkab efiri hamda terpeniol, pinen, kamfen, sof holdagi barneol, 0.01 % ga yaqin alkaloidlar (xatinin, valerian, aktenidi), uchuvchan asoslar, valerid glikozid, sanoninlar, qandlar, olma hamda sirka kislotalar va boshqa birikmalar bo'ladi.

Ishlatilishi. Valerianadan tayyorlangan preparatlar asab tizimini tinchlantiruvchi hamda yurak faoliyatini yaxshilovchi sifatida qo'llaniladi. Uning ildizi preparatlari sedative ta'sirga ega, uyquni kelishini yengillashtiradi va uyqu sifatini yaxshilaydi.

Asosan yuqori nerv qo'zg'aluvchanligida (nevrasteniya) va uyquni buzilishida qo'llaniladi.

Yetishrish agrotexnologiyasi. Valerianani bizning Respublikamiz sharoitida kuzda va erta bahorda ekish tavsiya etiladi. Kuzda yer shudgor qilinib, molalanib tekislanadi, begona o'tlardan tozalanadi hamda 60 sm kenglikda egat olinib, har bir gektar yerga 7-8 kg miqdorda urug' sepiladi, urug'lar yerga 1-1.5 sm chuqurlikka ekiladi. Valeriana urug'I sovuqqa chidamli bo'ladi. Urug' unub chiqishining optimal darajasi 15-20 C ni tashkil qiladi. Ob-havo yaxshi bo'lgan davrda urug'lar 15-20 kunda unib chiqadi. Valerianani parvarish ishlari maysalar orasini yumshatish, chopiq qilishdan boshlanadi. Unib chiqqan nihollar mahalliy va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirib chiqiladi.har bir gektarga 30-40 kg azot va fosforli o'g'itlar berilishi kerak. Valerianani urug'idan tashqari ko'chatlari orqali ham ko'paytirish mumkin.Buning uchun maxsus niholxona (pitomnik) tashkil qilinib ko'chatlar yetishtiriladi va yetilgan niholchalar ochiq yerga ko'chirilib o'tqaziladi. O'tqazilgan har bir nihollar oralig'I 10-15 sm bo'lishi lozim va sug'orilishi lozim.Valerianani ildizlari vegetatsiyasini ikkinchi yilining ohirida, o'simlik urug'lari piship yetilgandan so'ng kovlab olinadi. Har bir gektar maydondan 15-20 sentnerdan quruq holda ildiz kovlab olinadi. Yig'ib olingan mahsulot tuproqdan tozalanib, mahsus idish yoki savatlarga solib suvda yuviladi. Suvi selgishi uchun biroz vaqt ochiq yerda qoldiriladi va havo kirib turadigan joyga va quritgichda 35-40 C da quritiladi. Valeriananing ildizi va ildizpoyasi ho'lligida hidsiz va oqish bo'lib, quritilgandan so'ng qo'ng'ir ranga aylanadi hamda o'ziga xos "valeriana hidi"ga ega bo'ladi. Bu o'zgarishlar quritish davrida yuz bergan fermentatsiya jarayoni natijasidir. Umuman olganda, farmasevtika sanoati korxonalari ehtiyojlarini dorivor o'simliklar xomashyosi bilan to'lato'kis, uzliksiz ta'minlash, hamda dorivor o'simliklar homashyo bazasini yaratish uchun ularni ekib o'stirish, hamda ularning ekin maydonlarini kengaytirib, dorivor o'simliklar dehqonchiligini Respublikamizda rivojlantirish, qishloq xo'jaligimiz fanlari oldidagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam Valeriana o'simligi tabobatda keng qo'llanilishi bilan boshqa o'simliklardan ajralib turadi. Ushbu o'simlikdan " Valeriana ekstrakti" nomli nomli qobiq bilan qoplangan tabletka ishlab chiqariladi. Har bir tabletka quyidagilarni saqlaydi: Valerianani quyuuq ekstrakti – ekstragent etil spirt 40 % - 20 mg, magniy karbanati asosi, kartoshka kraxmali, talk, jelatin, qand, pigmentli titan dioksidi, asalari mumi, paraffin, kungaboqar moyi, xinolin sarig'i, E 104, kolloid kremniy dioksidi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Rasulov, Sh.Qosimov, M.Raximova – "Dorivor o'simliklarda ilmiy izlanish asoslari" Andijon- 2020
2. E.T.Axmedov, E.T.Berdiyev – "Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi" Toshkent - 2017

3. S.S. Sahobiddinov – “ O’simliklar sistematikasi” Toshkent - 1966
4. S.Xoliqov, O’.Pratov, A.Fayziyev – “Osimliklar aniqlagichi” Toshkent - 1995
5. O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova, A.V. Mahmudov “Structure of local populations and phytocoenotic confinement of *Elwendia persica* in Turkestan Ridge, Uzbekistan”.BIODIVERSITAS ISSN: 1412-033X.Volume 24, Number 3, March 2023 E-ISSN: 2085-4722.Pages: 1621-1628 DOI:10.13057/biodiv/d240334
6. Mamatkulova I.E."Elwendia Boiss turkumi turlarida efir moyi va antioksidantlik faolligini o'rganish".Материалы научной конференции проблемы биофизики и биохимии - 2023.119 стр.19 мая 2023 года
7. Ergashevna M. I., Abduvaliyevich M. M. Elwendiya boiss turkumi turlarining antioksidantlik xususiyatlari //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 498-500.
8. Baxodir o'g'li A. B. et al. IN VITRO SHAROITIDA MAXSULOT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 569-571.
9. BAXODIR O'G'LI A. B. ., Ergashevna M. I., Iskandarovich O. R. A. BIOYOQILG 'ILARNI SANOATDA OLIH TEXNOLOGIYASI VA ULARNING IMKONIYATLARI //Endless light in science. – 2022. – №. декабрь. – С. 150-154.
10. Baxodir o'g'li A. B. et al. ODDIY KANAKUNJUT (*RICINUS COMMUNIS L*) O 'SIMLIGINING AHAMIYATI VA AGROTEXNOLOGIYASI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 1605-1609.
11. Baxodir o'g'li A. B., Iskandarovich O. A., Abduvaliyevich M. M. AMARANT (*AMARANTHUS*) NING-BOTANIK TASNIFI VA DORIVORLIK XUSUSIYATI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 336-337.
12. Джамоатова Ф., Анваров Б. *Hypericum perforatum* l osimligining dorivorlik xususiyati va genetik tahlili //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 276-278.